

HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ VA MAN’U-T-TARODUF” ASARIDA SINONIMLARNI IZOHLASH USLUBI

Fathiddin Muhammadjonov

Birlashgan Arab Amirliklarining Toshkentdagi elchixonasi tarjimoni

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17147982>

Buyuk vatandoshimiz Alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy 750-869) o‘zining arab tilshunosligi va islom tasavvufiga taalluqli “al-Furuq va man’u-t-taroduf” asarida sinonim so‘zlarni izohlashi uning leksemalarni sharhlashdagi uslubiyatini ochib beradi.

Termiziyning deyarli barcha kitoblarida lug‘atshunoslikka oid fikrlar va o‘ziga xos yondashuv uchraydi. Termiziy biror so‘zni keltirar ekan, albatta, ushbu so‘zning sharhida lug‘aviy jihatlarini batafsil yoritadi. Olim o‘z asarlarida biror mavzuga to‘xtalmoqchi bo‘lsa, shu mavzuga doir so‘zlar xoh diniy-ma‘rifiy, xoh axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lsin, ularni doimo asl o‘zagiga, tub ma‘nosiga qaytarishga harakat qiladi. U avval so‘zning asl ma‘nosini izohlaydi, so‘ngra shunga asoslangan holda keyingi fikr va mulohazalarini bayon qiladi¹. Hakim Termiziy ta‘lif etgan asarlari tadqiqi shuni ko‘rsatayotgani, alloma ko‘plab kitoblarida tilshunos olimlarning sinonimiya nazariyasi haqidagi fikrlariga o‘zining dalillari, kognitiv qarashlariga tayangan tasavvufiy o‘ziga xos uslubiyatiga egadir.

Allomaning asardagi so‘zlarni izohlash usulini ko‘rib chiqish maqsadida “al-Furuq va man’u-t-taroduf” asarining ikkinchi المجادلة والمحاجة bobiga bevosita murojaat etadigan bo‘lsak, dastlab المحاجه (tortishuv, bahs, o‘zaro hujjatlashish) so‘ziga izoh beradi. المحاجه (tortishuv, bahslashish)da bahslashuvchi haqni qaror toptirish, uni bayon qilish, yoritish, (haqqa) nusrat berish va uni namoyon qilishni maqsad qilishini aytib, dalil keltirmagunicha, haqni lozim tutmaguncha tortishmasligini ta‘kidlaydi. Shu bilan المحاجه so‘ziga berilgan qisqa izohdan so‘ng المناظرة so‘zini sharhlash boshlanadi. Aslida ushbu so‘z bobning nomlanishida qayd qilinmagan. Lekin ushbu المناظرة (munozara) so‘zi المجادلة والمحاجة so‘zlariga semantik yaqin bo‘lgani bois alloma sharh asnosida izohlab ketgan.

Aytilishicha, المناظرة (munozarada) bu bahslashayotgan tomonlar bahslashuvchisi keltirayotgan narsaga nafsida illatlarga parvo qilmay qalbining nuri bilan qaraydi. Agar ko‘ks nafsning illatlariyu, shahvatlarining tutunidan xoli bo‘lsa, ko‘nglining² ikki ko‘zi bilan ko‘radi. Haqiqat unga o‘z nuri bilan namoyon bo‘ladi va ikkinchi tomonga dalil keltiradi. Ikkinchi tomonni mana shu haqiqat bilan tanitishni, uning ko‘ksida namoyon bo‘lgan xato tushunchani o‘chirganiga qadar zabt etishni xohlaydi. Chunki bu xato tushuncha birinchi tomonning nazdida botildir.

Keyingi so‘z المجادلة so‘ziga izoh beriladi. Alloma ushbu so‘zni majoziy ma‘noda “sindirish, buzish” deb nomlaydi. Jadal, ya‘ni tortishuv sindirmoqdir deydi. So‘zining davomida nima uchun bunday ta‘rif berilgani tushuntiriladi. Mujodalada inson tortishayotgan tarafni yengishni maqsad qiladi va bu tortishuv haqni yuzaga chiqarish, botilni ketkazish uchun bo‘lmasligi aytiladi. So‘ngra Qur’oni karim Anfol surasi 5-6-oyatlari keltiriladi:

{كَمَا أَخْرَجَكَ رَبُّكَ مِنْ بَيْتِكَ بِالْحَقِّ وَإِنَّ فَرِيقًا مِنَ الْمُؤْمِنِينَ لَكَارِهُونَ (5) يُجَادِلُونَكَ فِي الْحَقِّ بَعْدَمَا تَبَيَّنَ كَأَنَّمَا يُسَاقُونَ إِلَى الْمَوْتِ وَهُمْ يَنْظُرُونَ}

¹ Qarang: Usmonov I. Ҳақим Термизий луғатшуносликка оид қарашларининг ўзига хос хусусиятлари // Тафаккур. – 2022. – № 3. – Б. 16.

² Hakim Termiziy ko‘ks, qalb, ko‘ngil so‘zlarini farqlab, boshqa–boshqa narsa ekanligini urg‘ulaydi.

“Albatta, mo‘minlarning bir guruhi yoqtirmagan bo‘lsalar ham, Robbing seni haq yo‘l ila uyingdan chiqarganga o‘xshaydi. Xuddi o‘zlari ko‘rib turgan hollarida o‘limga haydalgandek, haq ayon bo‘lganidan keyin ham sen bilan bahslashadilar³”. Guvohi bo‘lib turilganidek, ushbu oyatda المجادلة so‘zi qo‘llangan bo‘lib, mazmun jihatdan Termiziy keltirayotgan ma’noga to‘liq mos keladi. Alloma oyatni keltirgach, ushbu oyatga doir islom tarixida sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni bayon qiladi:

فإنما خرج رسول الله ﷺ فيمن معه في طلب العير، فلما فاتهم العير وقصدهم المشركون للحرب كرهت طائفة من المؤمنين ذلك، لأن نفوسهم قد كانت تذوقت طعم نوال العير، وكرهت القتال، فلما فاتهم ما طمعوا واستقبلتهم الحرب ثقل ذلك عليهم، فقال قائلون: نرجع على السلامة والعافية، وقال آخرون: نثبت لحربهم، فصار ذلك من أولئك الذين مالوا إلى الرجوع مجادلة للرسول عليه السلام في الحق، وقد وعدهم الله إحدى الطائفتين أنها لكم، ثم قال مخبراً عن سرائرهم، {وَتَوَدُّونَ أَنَّ غَيْرَ ذَاتِ الشُّوْكَةِ تَكُونُ لَكُمْ}، يعنى: العير، {وَيُرِيدُ اللَّهُ أَنْ يُحَقِّقَ الْحَقَّ بِكَلِمَاتِهِ وَيَقْطَعَ دَابِرَ الْكَافِرِينَ}، فكانت أمنية تلك النفوس بخلاف ما أراد الله من إقامة حقه ونصرتة وقتل رءوس الكفر والضلالة.

“Payg‘ambar (s.a.v) o‘zlari birga bo‘lgan kimsalar bilan (mushriklarning) karvonini izlab chiqdilar. Qachonki karvon ulardan (musulmonlardan oldinga) o‘tib ketganda, mushriklar urush qilishni maqsad qiladilar. Bu holni mo‘minlarning bir toifasi xush ko‘rmaydi. Chunki ularning nafslari karvonga ega chiqish ta‘mini totib ko‘rgandi. Ular urush qilishni xohlamadilar. Ular istagan narsa bo‘lmaganda, ularni urush kutib oldi va bu ularga og‘irlik qildi. “Sog‘-omon qaytamiz”, – deyishdi. Boshqalari bo‘lsa: “Ular bilan urushish uchun bardavom turibmiz”, – dedilar. Bu ish qaytishni istaganlar Payg‘ambar (s.a.v) bilan haqda “mujodala” qilishiga, ya’ni tortishishiga aylandi. Alloh ikki toifadan biri Abu Sufyonning karvoni yoki mushriklarning lashkari) sizlarga bo‘ladi deya va’da bergan edi. So‘ngra ularga qalblaridagini xabarini berib: “Mashaqqati yo‘q sizlarniki bo‘lishini xohlaysizlar”, – dedi. Ya’ni, karvonni xohlaysizlar dedi. “Alloh esa O‘z kalimalari ila haqni haq qilishni va kofirlarning dumini qirqishni xohladi”⁴. Ana o‘sha nafslarning (mashaqqatsiz ishni xohlaganlarning) istagi Alloh iroda qilganiga teskari edi. Allohning xohlagani haqni va nusratini qaror toptirish, kufr va zalolat boshliqlarini o‘ldirish edi”. Shu bilan ikkinchi المجادلة والمحااجة bobining izohi yakuniga yetadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Hakim Termiziy sinonimik so‘zlarni izohlashdagi uslubi nafaqat leksema semalari ma’nolaridagi daqiq farqlarni bayon qiladi, ushbu leksemalarning diniy tasavvurlari bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi. Olimning ushbu “al-Furuq va man‘u-t-taroduf” (الفروق ومنع الترادف – “Farqlar va sinonimiyaning yo‘qligi”) asari lingvistikaning muhim tarmog‘i hisoblanmish sinonimiya paradigmasi va islom tasavvuf ta’limoti to‘g‘risidagi qarashlarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirtojiev M.M. “O‘zbek tili semisologiyasi”. – Toshkent: Mumtoz so‘z nashriyoti. 2010. B. 288.
2. H.Aminov “Qur’ondagi ma’nodosh so‘zlar” asari – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2017. – 146+69 b.
3. Faxriddinov Z. “Tahsil nazoir al-Qur’on” asari – Qur’on ilmlariga oid muhim manba: islomsh. f. f. (Phd) ...diss. – Toshkent: O‘zXIA, 2023.

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol 2-juz. – Toshkent: Hilol nashr, 2008. – B. 457– 458.

⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol 2-juz. – Toshkent: Hilol nashr, 2008. –B. 459.

4. Azamov, B. B. Hakim Termiziyning “Al-amsol minal-kitob vas-sunna” asari muhim adabiy manba. – 2020. – № 15 (305). – 446-449 b.
5. Usmonov I. Navodir al-usul hikmatlari. – Toshkent: Fan, 2009. –188 b.;
6. At-Termiziy, al-Hakim. Navodir al-usul hikmatlari. Nashrga tayyorlovchi I.Usmonov va b. – Toshkent: O‘zXIA, 2020. – T. IV. – B. 502 b.
7. Rustamiy S. O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. –Toshkent, 2019. – 239 b.
8. Hakim Termiziy. Saraxs ahli so‘ragan masalalar. – Tarjimon Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. –158 b.
9. Hakim Termiziy. Saraxs ahli so‘ragan masalalar. – Tarjimon A.Tursunov. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 94 b.